DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-06-11-21 Pages: 240-258

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



PROTECTION OF THE RIGHT TO PRIVACY IN THE USE OF HIGH-RESOLUTION SATELLITE IMAGERY: INTERNATIONAL STANDARDS AND IMPROVEMENT OF THE LEGISLATION OF UZBEKISTAN

Fatkhullo Choriyev
Leading teacher, Academic Lyceum named after M.S. Vosiqova under Tashkent State University of Law
Master's student in International Law and Human Rights Tashkent State University of Law
E-mail: choriyevfatxulla@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Earth remote sensing, high-resolution satellite imagery, right to privacy, personal data, space monitoring, international space law, human rights, legislation of Uzbekistan.

Received: 01.11.26
Accepted: 02.11.26
Published: 03.11.26

Abstract: The article analyses international legal standards for protecting the right to privacy in the use of high-resolution satellite imagery and the corresponding mechanisms in the legislation of Uzbekistan. The study relies on formal-legal, comparative-legal and systemic methods. The Universal Declaration of Human Rights, the International Covenant on Civil and Political Rights, General Comment No. 16 of the UN Human Rights Committee, the 1967 Outer Space Treaty and the 1986 Remote Sensing Principles are compared with the Constitution of Uzbekistan and the Laws "On Personal Data" and "On Space Activities". The article argues that the legal status of an image depends not on its technical resolution but on the possibility of identifying a person and on the purpose of use. It proposes a matrix of risks and safeguards across the data life cycle (acquisition, processing, storage, dissemination) and a five-criteria model for assessing interference. Proposals are made to supplement the Law "On Space Activities" with a new Article 15¹ and to adopt a regulation on the handling of space monitoring data.

YUQORI ANIQLIKDAGI SUN'IY YO'LDOSH TASVIRLARIDAN FOYDALANISHDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI HIMOYA QILISH: XALQARO STANDARTLAR VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Fatxullo Choriyev
Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi
M.S. Vosiqova nomidagi akademik litsey yetakchi o'qituvchisi
Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" yo'nalishi magistranti
E-mail: choriyevfatxulla@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yerni masofadan zondlash, yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh tasvirlari, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlar, kosmik monitoring, xalqaro kosmik huquq, inson huquqlari, O'zbekiston qonunchiligi.

Annotatsiya: Maqolada yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh tasvirlaridan foydalanishda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy standartlari va O'zbekiston qonunchiligidagi mexanizmlar tahlil qilinadi. Tadqiqot formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil usullariga tayanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, BMT Inson huquqlari qo'mitasining 16-son umumiy izohi, 1967-yilgi Kosmik shartnoma va 1986-yilgi Yerni masofadan zondlash tamoyillari O'zbekiston Konstitutsiyasi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi va "Kosmik faoliyat to'g'risida"gi qonunlar bilan qiyoslanadi. Tasvirning huquqiy maqomi uning texnik aniqligiga emas, balki shaxsni identifikatsiya qilish imkoniyati va foydalanish maqsadiga bog'liq ekani asoslanadi. Ma'lumotlarning hayot sikli (olish, ishlov berish, saqlash, tarqatish) bo'yicha xavflar va kafolatlar matritsasi hamda aralashuvni baholashning besh mezonli modeli taklif etiladi. "Kosmik faoliyat to'g'risida"gi Qonunni yangi 15¹-modda bilan to'ldirish va kosmik monitoring ma'lumotlari bilan ishlash tartibi to'g'risida nizom qabul qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

ЗАЩИТА ПРАВА НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЧАСТНОЙ ЖИЗНИ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ СПУТНИКОВЫХ СНИМКОВ ВЫСОКОГО РАЗРЕШЕНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ И ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

Фатхулло Чориев
Ведущий преподаватель академического лицея имени М.С. Васиковой при Ташкентском государственном юридическом университете

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета по направлению «Международное право и права человека»
E-mail: choriyevfatxulla@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дистанционное зондирование Земли, спутниковые снимки высокого разрешения, неприкосновенность частной жизни, персональные данные, космический мониторинг, международное космическое право, права человека, законодательство Узбекистана.

Аннотация: В статье анализируются международно-правовые стандарты защиты права на неприкосновенность частной жизни при использовании спутниковых снимков высокого разрешения и соответствующие механизмы законодательства Узбекистана. Исследование основано на формально-юридическом, сравнительно-правовом и системном методах. Всеобщая декларация прав человека, Международный пакт о гражданских и политических правах, Замечание общего порядка № 16 Комитета ООН по правам человека, Договор о космосе 1967 года и Принципы дистанционного зондирования Земли 1986 года сопоставляются с Конституцией Узбекистана, законами «О персональных данных» и «О космической деятельности». Обосновывается, что правовой статус снимка определяется не его техническим разрешением, а возможностью идентификации лица и целью использования. Предложены матрица рисков и гарантий по этапам жизненного цикла данных (получение, обработка, хранение, распространение) и пятикритериальная модель оценки вмешательства. Разработаны предложения о дополнении Закона «О космической деятельности» новой статьей 15¹ и о принятии положения о порядке работы с данными космического мониторинга.

Kirish. Kosmik texnologiyalarning rivojlanishi, xususan, Yerni masofadan zondlash imkoniyatlarining kengayishi davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ekologik nazorat va xavfsizlik sohalarida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Yuqori aniqlikdagi sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yer resurslarini kuzatish, shaharsozlik jarayonlarini nazorat qilish, tabiiy va texnogen o‘zgarishlarni aniqlash hamda turli hududlardagi obyektlar holati to‘g‘risida ma’lumot olishga imkon beradi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar takomillashgani sari insonning shaxsiy hayoti va xususiy hududiga aralashuv xavfi ham ortib bormoqda. Tasvirlarni takroran olish, ularga ishlov berish va boshqa

axborot manbalari bilan birlashtirish orqali shaxsning yashash joyi, kundalik faoliyati va harakatlanishi haqida ma’lumot shakllantirish mumkin. Shu sababli kosmik monitoringning texnologik imkoniyatlari bilan shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi o‘rtasidagi muvozanatni huquqiy jihatdan belgilash dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

Shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari universal hujjatlarda mustahkamlangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi shaxsiy va oilaviy hayotga, turar joyga hamda yozishmalarga o‘zboshimchalik bilan aralashishni taqiqlaydi [1; 12-modda]. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 17-moddasi bunday aralashuvlardan qonun bilan himoyalanish huquqini kafolatlaydi [2; 17-modda]. BMT Inson huquqlari qo‘mitasining 16-son umumiy izohida bu himoya davlat organlari bilan bir qatorda jismoniy va yuridik shaxslarning aralashuvlariga nisbatan ham ta’minlanishi, shaxsiy hayotga oid ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash qonun bilan tartibga solinishi lozimligi qayd etilgan [3; 1, 10-bandlar]. Ushbu qoidalar sun’iy yo‘ldosh tasvirlarini olish, ularga ishlov berish va tarqatish faoliyatini ham inson huquqlari nuqtayi nazaridan baholashni talab qiladi.

Kosmik faoliyatni xalqaro-huquqiy tartibga solishda 1967-yilgi “Kosmik fazo, shu jumladan Oy va boshqa samoviy jismlarni tadqiq qilish hamda ulardan foydalanish bo‘yicha davlatlar faoliyati prinsiplari to‘g‘risidagi shartnoma” (keyingi o‘rinlarda – Kosmik shartnoma) asosiy hujjat hisoblanadi. Uning VI moddasida davlatlarning milliy kosmik faoliyat uchun xalqaro javobgarligi, shu jumladan nodavlat subyektlar faoliyatiga ruxsat berish va uni doimiy nazorat qilish majburiyati belgilangan [4; VI modda]. O‘zbekiston 2024-yil 10-oktabrdagi O‘RQ-975-son Qonun bilan ushbu Shartnomaga qo‘shilgan [5], demak, uning qoidalari milliy kosmik faoliyat uchun bevosita ahamiyatga ega. BMT Bosh Assambleyasining 1986-yil 3-dekabrdagi 41/65-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Yerni kosmosdan masofadan zondlash tamoyillari bu faoliyatni xalqaro huquqqa muvofiq amalga oshirish, xalqaro hamkorlik va zondlanayotgan davlatlarning qonuniy manfaatlarini hisobga olish qoidalarini belgilaydi [6]. Biroq kosmik huquq normalarida alohida shaxslarning shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilishga qaratilgan batafsil kafolatlar deyarli ifodalanmagan. Bu kosmik faoliyatga oid normalarni xalqaro inson huquqlari standartlari bilan uyg‘un talqin qilishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasida shaxsiy hayot daxlsizligining konstitutsiyaviy asoslari shakllantirilgan. Konstitutsiyaning 31-moddasida shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, shaxsga doir ma’lumotlarning himoya qilinishini talab etish hamda turar joy daxlsizligi huquqlari kafolatlangan [7; 31-modda]. 2019-yil 2-iyuldagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, ularga ishlov berish, tarqatish va himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi [8]. 2025-yil 13-yanvardagi “Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun esa Yerni masofadan zondlash va kosmik monitoring faoliyatining

maxsus huquqiy asoslarini belgilab, ma’lumotlarni olish, ularga ishlov berish, saqlash va tarqatish tartibini nazarda tutadi [9]. Prezidentning 2024-yil 14-oktabrdagi PF-155-son Farmoni bilan 2024–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlariga aerokosmik texnologiyalarni joriy etish vazifalari belgilangani [10] kosmik tasvirlardan foydalanish ko‘lami kengayib borishini, demak, ularning huquqiy kafolatlarini aniqlashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi – yuqori aniqlikdagi sun’iy yo‘ldosh tasvirlaridan foydalanishda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy standartlarini tahlil qilish, O‘zbekiston qonunchiligidagi mavjud mexanizmlarning imkoniyatlari va bo‘shliqlarini aniqlash hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish. Maqsaddan kelib chiqib, quyidagi tadqiqot savollari qo‘yildi: (1) sun’iy yo‘ldosh tasviri qaysi holatlarda shaxsga doir ma’lumot yoki shaxsiy hayotga aralashuv vositasi sifatida baholanadi; (2) xalqaro inson huquqlari va kosmik huquq normalari kosmik monitoringga qanday mezonlarni qo‘yadi; (3) xususiy operatorlar va davlatning majburiyatlari qanday farqlanadi; (4) O‘zbekiston qonunchiligida bu mezonlar qay darajada aks etgan va qanday takomillashtirilishi mumkin. Tadqiqotning ilmiy yangiligi kosmik monitoring ma’lumotlarining hayot sikli bo‘yicha xavflar va kafolatlar matritsasini, aralashuvni baholashning besh mezonli modelini hamda “Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunga kiritiladigan maxsus norma loyihasini taklif etishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Kosmik texnologiyalarning rivojlanishi va Yerni masofadan zondlash ma’lumotlaridan foydalanish ko‘lamining kengayishi bilan shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish masalasi xalqaro ilmiy tadqiqotlarda alohida yo‘nalishga aylandi. Bu yo‘nalishdagi ishlarni uch guruhga ajratish mumkin: kosmik huquq va shaxsiy hayot daxlsizligining o‘zaro munosabati; sun’iy yo‘ldosh tasvirlarining shaxsga doir ma’lumotlar bilan bog‘liqligi; kosmik monitoringning inson huquqlariga ta’siri.

F.G. von der Dunk “Outer Space Law Principles and Privacy” nomli tadqiqotida tijorat kosmik faoliyatining kengayishi va yuqori aniqlikdagi tasvirlarning ommalashuvi natijasida shaxsiy hayotga aralashuv xavfi ortishini tahlil qilgan. Muallif kosmik ma’lumotlardan foydalanish davlatlararo munosabatlar bilan cheklanmay, alohida shaxslarning huquqiy manfaatlariga ham daxl qilishini asoslaydi [11, p. 243–258].

Sh. Bu-Pasha va H. Kuusniemi kosmik ma’lumotlarga Yevropa Ittifoqining Ma’lumotlarni himoya qilish umumiy reglamenti (GDPR)ni qo‘llash imkoniyatlari va muammolarini o‘rgangan. Mualliflarning qayd etishicha, GDPRda kosmik ma’lumotlarga oid alohida qoida yo‘q, shu sababli uning umumiy normalarini kosmik kontekstga nisbatan talqin qilishga to‘g‘ri keladi [12, p. 52–58]. C. Santos va L. Rapp yuqori aniqlikdagi tasvirlar va GDPRga bag‘ishlangan maqolasida tasvirlarning fazoviy va vaqt bo‘yicha aniqligi, avtomatlashtirilgan tahlil hamda turli manbalarni birlashtirish natijasida shaxslarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkoniyatini tahlil

qiladi. Bu ish tasvirning o‘zini emas, balki undan hosil qilinadigan tahliliy axborotni ham ma’lumotlarni himoya qilish nuqtayi nazaridan baholash zarurligini ko‘rsatadi [13, p. 275–296].

Shaxsiy hayot daxlsizligini nazariy tushuntirishda H. Nissenbaumning “kontekstual yaxlitlik” konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. Muallifga ko‘ra, axborotni yig‘ish va tarqatish uning mazmuni bilangina emas, balki muayyan ijtimoiy kontekst, axborot almashinuvi qoidalari va foydalanish maqsadiga muvofiqligi bilan ham baholanadi [14, p. 119–158]. D.J. Solove “A Taxonomy of Privacy” ishida shaxsiy hayotga aralashuv shakllarini tizimlashtirib, ma’lumotlarni yig‘ish, ularga ishlov berish va oshkor qilish bilan bog‘liq xavflarni alohida ko‘rib chiqadi [15, p. 477–564]. Bu yondashuvlar kosmik monitoring ma’lumotlarining turli bosqichlarda qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishini baholashga yordam beradi.

M. Pedram, S. Chandler va E. Georgiades 2025-yilda chop etilgan tadqiqotida tijorat sun’iy yo‘ldosh tasvirlaridan foydalanish natijasida shaxsiy hayot daxlsizligi buzilishi ehtimolini AQSH, Yevropa Ittifoqi va Avstraliya huquqi asosida qiyosiy tahlil qilgan. Mualliflar tasvirlarni boshqa axborot bilan birlashtirish, xususiy hududlarni tizimli kuzatish va tasvirlarni ommaga tarqatish bilan bog‘liq xavflarni ko‘rsatadi [16, p. 119–156]. S. Rapach, A. Riccardi va R. Wheate Yerni kuzatish texnologiyalarining BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi indikatorlariga muvofiqligini o‘rganib, sun’iy yo‘ldosh tasvirlaridan huquqbuzarliklarni hujjatlashtirishda foydalanish imkoniyatlarini va ularni boshqa dalillar bilan solishtirish zarurligini ta’kidlaydi [17, p. 710–727]. T. Youyod va Sh. Li kosmik ma’lumotlarga amaldagi huquq normalarini qo‘llash muammolarini tahlil qilib, ma’lumotlarni ortiqcha yig‘ish, foydalanish maqsadlarining noaniqligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalariga e’tibor qaratadi [18, p. 678–690].

Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar yuqori aniqlikdagi tasvirlarning shaxsiy hayot daxlsizligiga ta’siri, bilvosita identifikatsiya va tijorat operatorlarining mas’uliyati xorijiy tadqiqotlarda yetarlicha yoritilganini ko‘rsatadi. Biroq O‘zbekistonning kosmik faoliyatga oid maxsus qonunchiligi bilan shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish normalarining o‘zaro bog‘liqligi, ayniqsa, tasvirni olishdan tarqatishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda kafolatlarni ta’minlash masalasi milliy huquqshunoslikda hali alohida o‘rganilmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-huquqiy xususiyatga ega bo‘lib, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy doktrina tahliliga asoslanadi. Tahlil obyekti sifatida inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar, kosmik faoliyatni tartibga soluvchi xalqaro shartnoma va tamoyillar, BMT inson huquqlari mexanizmlarining hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shaxsga doir ma’lumotlar va kosmik faoliyat sohasidagi qonunchilik olindi.

Formal-yuridik metod xalqaro va milliy normalarning mazmuni va tartibga solish doirasini aniqlashda qo‘llanildi. Qiyosiy-huquqiy metod yordamida xorijiy doktrinadagi yondashuvlar (GDPR doirasidagi talqinlar, AQSH va Avstraliya tajribasiga oid tadqiqotlar) O‘zbekiston qonunchiligidagi mexanizmlar bilan solishtirildi. Tizimli tahlil kosmik huquq va inson huquqlari normalarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda, mantiqiy-huquqiy metod esa bo‘shliqlarni baholash va takliflar ishlab chiqishda ishlatildi.

Tasvirni olish, unga ishlov berish, saqlash va tarqatish jarayonlari shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash nuqtayi nazaridan alohida-alohida baholandi. Baholash mezonlari sifatida shaxsni identifikatsiya qilish imkoniyati, kuzatuvning maqsadi, zaruriyati, mutanosibligi va ma’lumotlardan keyingi foydalanish xususiyatlari olindi. Empirik so‘rov va statistik ma’lumotlar tahlil qilinmagani sababli xulosalar normativ tartibga solish va huquqiy mexanizmlarni baholashga taalluqli.

Tahlil va natijalar.

1. Yuqori aniqlikdagi sun’iy yo‘ldosh tasvirlarining huquqiy tabiati va ularning shaxsiy hayot daxlsizligiga ta’siri

Kosmik monitoring muayyan hudud yoki obyekt haqidagi ma’lumotlarni masofadan, takroran va keng geografik qamrovda olishga imkon beradi. Tasvir obyektning tashqi ko‘rinishi bilan birga uning joylashuvi, boshqa obyektlar bilan munosabati va vaqt davomidagi o‘zgarishlarini ham aks ettiradi. Shu sababli tasvirning huquqiy tabiatini uni olish, unga ishlov berish va tahlil qilish jarayonlaridan ajratib baholab bo‘lmaydi.

1986-yilgi Yerni kosmosdan masofadan zondlash tamoyillarining I prinsipida birlamchi ma’lumotlar, ishlov berilgan ma’lumotlar va tahlil qilingan axborot farqlanadi [6; I prinsip]. Bu tasnifning huquqiy ahamiyati shundaki, dastlabki tasvir bilan uni qayta ishlash va boshqa manbalar bilan birlashtirish natijasida hosil bo‘lgan tahliliy axborotning mazmuni bir xil emas: muayyan shaxs yoki uning kundalik faoliyati haqida xulosa chiqarish imkoniyati aynan keyingi bosqichlarda paydo bo‘ladi.

Shu jihatdan barcha sun’iy yo‘ldosh tasvirlarini avtomatik ravishda shaxsga doir ma’lumot deb hisoblash to‘g‘ri emas. “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, muayyan jismoniy shaxsga taalluqli yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan axborot shaxsga doir ma’lumot hisoblanadi [8; 4-modda]. Demak, tasvirning huquqiy maqomi unda aks etgan axborot, uni boshqa manbalar bilan bog‘lash imkoniyati va foydalanish sharoitiga qarab aniqlanadi. Tasvirda faqat yer maydoni, yo‘l yoki ishlab chiqarish binosi aks etgan bo‘lsa, uning o‘zi shaxsga doir ma’lumot bo‘lmasligi mumkin. Turar joy tasviri manzil, kadastr yoki mulk huquqiga oid ma’lumotlar bilan birlashtirilganda esa muayyan shaxsni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi va shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish normalari qo‘llanadi.

Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish va shaxsiy hayot daxlsizligi o‘zaro bog‘liq, ammo mazmunan bir xil bo‘lmagan institutlardir. Birinchisi muayyan shaxsga taalluqli axborotni yig‘ish, saqlash, unga ishlov berish, uzatish va tarqatish bilan bog‘liq munosabatlarni qamrab oladi. Ikkinchisi insonning xususiy hayoti, oilaviy munosabatlari, turar joyi va shaxsiy erkinligini o‘zboshimchalik bilan yoki qonunga xilof aralashuvdan himoya qiladi. Shu sababli tasvir shaxsni bevosita identifikatsiya qilmasa ham, uning xususiy hayotiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bunday xavf, ayniqsa, turar joylar va shaxsiy foydalanishdagi hududlarni muntazam kuzatishda namoyon bo‘ladi. Muayyan hovli yoki xonadonning turli vaqtlarda olingan tasvirlarini solishtirish va boshqa axborot bilan birlashtirish yashash sharoiti va kundalik faoliyat haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Ammo obyektning sun’iy yo‘ldosh orqali tasvirga olinishi har doim ham huquq buzilganini anglatmaydi. Bunday faoliyatni baholashda uning maqsadi, qonuniy asosi, davomiyligi, aniqlik darajasi, foydalanish doirasi va ehtimoliy oqibatlari birgalikda hisobga olinishi kerak.

“Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunda Yerni masofadan zondlash tushunchasi kosmik apparatlar bilan bir qatorda boshqa qurilmalarga o‘rnatilgan uskunalar orqali yer ustidagi va yer qa’ridagi obyektlar haqida ma’lumot olishni ham qamrab oladi [9]. Mazkur tadqiqot kosmik apparatlar orqali olinadigan yuqori aniqlikdagi tasvirlarga qaratilgan. Qonunning 13–15-moddalari Yerni masofadan zondlash ma’lumotlarini olish, ularga ishlov berish, saqlash, tarqatish va davlat kosmik monitoringini amalga oshirish tartibini belgilaydi [9; 13–15-moddalar]. Bu normalar ma’lumotlar bilan ishlash bir necha bosqichdan iboratligini ko‘rsatadi, demak, inson huquqlari faqat tasvir olinayotganda emas, balki unga ishlov berish, saqlash va boshqa subyektlarga taqdim etish jarayonida ham himoyalanishi lozim. Har bir bosqichdagi asosiy xavflar va ularga mos kafolatlar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. Kosmik monitoring ma’lumotlarining hayot sikli bo‘yicha shaxsiy hayot daxlsizligiga oid xavflar va kafolatlar (muallif ishlanmasi)

Bosqich	Asosiy xavf	Xalqaro tayanch	Milliy norma	Taklif etilayotgan kafolat
Olishni rejalashtirish va tasvirga olish	Turar joy va xususiy hududlarni maqsadga nomutanosib aniqlik yoki davriylikda tasvirga olish	FSHXP 17-modda; 16-son umumiy izoh, 8-band; A/HRC/48/31	Konstitutsiya 31-modda; “Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun 13-modda	Tizimli monitoringdan oldin ta’sirni baholash; aniqlik va davriylikni vazifaga moslash
Ishlov berish va tahlil	Kadastr, manzil va boshqa bazalar bilan birlashtirish orqali bilvosita identifikatsiya	1986-yilgi tamoyillar, I prinsip; A/HRC/51/17	“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun 4, 18–19-moddalar	Birlashtirish uchun alohida qonuniy asos; yangi maqsad uchun foydalanishni qayta baholash

Bosqich	Asosiy xavf	Xalqaro tayanch	Milliy norma	Taklif etilayotgan kafolat
Saqlash	Muddatsiz saqlash, ruxsatsiz kirish, yaxlitlikning buzilishi	16-son umumiy izoh, 10-band	“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun 27–28-moddalar	Saqlash muddatlari; kirish huquqini cheklash; operatsiyalarni qayd etish
Taqdim etish va tarqatish	Qayta sotish, ommaviy joylashtirish, transchegaraviy uzatish	BMT rahbar tamoyillari, 17–21-tamoyillar	“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun 27¹-modda; “Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun 13–15-moddalar	Oluvchining maqsadini qayd etish; niqoblash va egasizlantirish
Nazorat va huquqiy himoya	Tasvirni kim olgani, kimga berganini aniqlash qiyinligi	BMT rahbar tamoyillari, 25–31-tamoyillar	“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun 30–31-moddalar	Mas’ul shaxsni belgilash; shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi

Jadvaldan ko‘rinadiki, xavflarning asosiy qismi tasvirga olishdan keyingi bosqichlarda – ishlov berish, saqlash va taqdim etishda yuzaga keladi. Shuning uchun tasvirning huquqiy maqomini baholashda beshta jihat hisobga olinishi maqsadga muvofiq: shaxsni identifikatsiya qilish imkoniyati; tasvirning shaxsiy hayot yoki turar joy bilan bog‘liqligi; kuzatuvning qonuniy maqsadi va zaruriyati; saqlash va tarqatish doirasi; himoya kafolatlarining mavjudligi. Bu yondashuv kosmik monitoringni faqat texnologik faoliyat sifatida emas, balki inson huquqlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan huquqiy munosabat sifatida ko‘rishga imkon beradi.

2. Shaxsiy hayot daxlsizligining xalqaro-huquqiy standartlari va ularning kosmik monitoringga tatbiqi

Xalqaro huquqda shaxsiy hayotga aralashuvning qonuniyligi va uning o‘zboshimchalik xususiyatiga ega emasligi o‘zaro bog‘liq, lekin mustaqil mezonlardir. Aralashuv qonunda nazarda tutilgani uning har qanday holatda asosli ekanini anglatmaydi: u qonuniy maqsadga xizmat qilishi, muayyan vaziyatda zarur bo‘lishi va ko‘zlangan maqsadga mutanosib bo‘lishi kerak. Demak, davlat organining kosmik monitoring vakolatiga ega ekani kuzatuvning istalgan shaklini inson huquqlariga avtomatik ravishda muvofiq qilib qo‘ymaydi.

Masalan, noqonuniy qurilishlarni aniqlash, ekologik zarar ko‘lamini baholash yoki tabiiy ofat oqibatlarini o‘rganish uchun hududni kosmik monitoring qilish jamoat manfaatlariga xizmat qiladi. Biroq kuzatuv jarayonida shaxslarning xususiy hududlari tizimli qayd etilsa, tasvirlar ularning kundalik faoliyatini aniqlash uchun qayta ishlansa yoki ma’lumotlar dastlabki maqsaddan tashqari boshqa subyektlarga berilsa, aralashuvning qonuniyligi va mutanosibligi masalasi yuzaga keladi.

BMT Inson huquqlari qo‘mitasining 16-son umumiy izohida shaxsiy hayotga aralashuv qonunda aniq belgilanishi, faqat vakolatli organ tomonidan va har bir holatning xususiyatidan kelib chiqib amalga oshirilishi zarurligi ta’kidlangan [3; 8-band]. Shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash qonun bilan tartibga solinishi, shaxsga o‘z ma’lumotlari mavjudligi va ulardan foydalanish maqsadlarini bilish imkoniyati berilishi lozim [3; 10-band]. Bu talablar kosmik monitoring orqali olingan ma’lumotlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini ham qonun darajasida belgilashni taqozo etadi.

BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissarining A/HRC/48/31-son ma’ruzasida yangi texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tahlil vositalaridan foydalanishda inson huquqlariga asoslangan yondashuv zarurligi qayd etilib, aralashuv qonun bilan nazarda tutilishi, qonuniy maqsadga erishish uchun zarur va unga mutanosib bo‘lishi talab etiladi [19; 8, 38–39-bandlar]. Kosmik monitoringda bu tasvirning aniqlik darajasi, kuzatuv davomiyligi va hududiy qamrovini qo‘yilgan vazifaga muvofiq belgilashni anglatadi. Ekologik monitoring yoki yer resurslaridan foydalanishni nazorat qilishda ko‘pincha hududning umumlashtirilgan tasviri yetarli bo‘ladi; alohida turar joylarni yuqori aniqlikda tasvirga olish zarur bo‘lmasa, shaxsiy hayotga kamroq aralashuvchi vositalardan foydalanish to‘g‘ri bo‘ladi. Texnologik imkoniyatning mavjudligi undan foydalanishning huquqiy zaruratini anglatmaydi.

Oliy komissarning A/HRC/51/17-son ma’ruzasida tizimli kuzatuv, turli axborot manbalarini birlashtirish va shaxslarning harakatlarini tahlil qilish shaxsiy hayotga aralashuvni kuchaytirishi ko‘rsatilgan. Ochiq jamoat joylaridagi faoliyat ham muntazam qayd etilib, tahlil qilinsa, shaxsiy hayot daxlsizligi doirasiga kirishi mumkin. Shu sababli kuzatuv aniq qonuniy maqsad, hudud va vaqt bilan cheklanishi lozim [20; 43, 48–52-bandlar].

Kosmik faoliyatga oid xalqaro normalar davlatlar zimmasiga nodavlat subyektlar faoliyatiga ruxsat berish va uni doimiy nazorat qilish majburiyatini yuklaydi [4; VI modda], masofadan zondlash faoliyati uchun esa davlatlarning xalqaro javobgarligini nazarda tutadi [6; XIV prinsip]. Biroq bu qoidalarning asosiy e’tibori davlatlar va zondlanayotgan hududlarga qaratilgan, alohida shaxslarning maxfiyligini himoya qilish mexanizmlari esa ishlab chiqilmagan. Shuning uchun kosmik huquq normalari inson huquqlari standartlari bilan birgalikda talqin qilinishi kerak.

Xususiy operatorlar faoliyatini baholashda BMTning Biznes va inson huquqlari bo‘yicha rahbar tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Hujjat davlatning inson huquqlarini himoya qilish majburiyati, biznes subyektlarining ularni hurmat qilish mas’uliyati va samarali huquqiy himoyadan foydalanish imkoniyatini uch ustunli yondashuv asosida belgilaydi [21]. Uning 17–21-tamoyillarida korxonalar o‘z faoliyatining inson huquqlariga salbiy ta’sirini aniqlashi, baholashi, oldini olishi va kamaytirishi lozimligi nazarda tutilgan [21; 17–21-tamoyillar]. Bu yondashuv

tijorat operatorlari tasvirlarni yig‘ish, ularga ishlov berish va tarqatishdan oldin maxfiylikka ta’sirni baholashi uchun konseptual asos bo‘la oladi.

Tahlil asosida kosmik monitoringda shaxsiy hayotga aralashuvni baholashning besh mezonli modeli ishlab chiqildi (2-jadval). Bu mezonlar xalqaro hujjatlarda aynan shu nom va tartibda berilgan tayyor ro‘yxat emas, balki inson huquqlari va kosmik huquq normalarini kompleks tahlil qilish asosida shakllantirilgan mualliflik yondashuvidir.

2-jadval. Kosmik monitoringda shaxsiy hayotga aralashuvni baholashning besh mezonli modeli (muallif ishlanmasi)

Mezon	Asosiy savol	Normativ tayanch
Qonuniylik	Monitoring qonunda aniq nazarda tutilganmi va uni vakolatli subyekt amalga oshiryaptimi?	FSHXP 17-modda; 16-son umumiy izoh, 3, 8-bandlar; Konstitutsiya 31-modda
Qonuniy maqsad	Kuzatuv qaysi jamoat manfaatiga xizmat qiladi va maqsad oldindan belgilanganmi?	A/HRC/48/31; “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun 18–19-moddalar
Zaruriyat va mutanosiblik	Aniqlik, davriylik va hududiy qamrov vazifa uchun zarur doiradan oshmaydimi?	A/HRC/48/31; A/HRC/51/17
Ma’lumotlarni himoya qilish	Identifikatsiya xavfi kamaytirilganmi, saqlash va kirish cheklanganmi?	“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun 27–28, 27¹-moddalar
Hisobdorlik va huquqiy himoya	Ma’lumotlar bilan operatsiyalar qayd etiladimi, shaxs shikoyat bera oladimi?	BMT rahbar tamoyillari, 17–21, 25–31-tamoyillar; “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun 30–31-moddalar

3. Xususiy kosmik operatorlar faoliyatida shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash va ularning mas’uliyati

Kosmik texnologiyalarning tijoratlashuvi Yerni masofadan zondlash ma’lumotlarini olish, ularga ishlov berish va foydalanishda xususiy sektor ulushini oshirmoqda. Tijorat operatorlari tasvirlarni oladi, ularni geofazoviy ma’lumotlar bilan boyitadi, saqlaydi va turli iste’molchilarga taqdim etadi. Bu faoliyat davlat boshqaruvi va iqtisodiyot uchun foydali bo‘lsa-da, jismoniy shaxslarning shaxsiy hayotiga oid axborotning tijorat muomalasiga kirishi xavfini ham tug‘diradi.

Xususiy operatorlar faoliyatini baholashda davlatning xalqaro javobgarligi bilan xususiy subyektning o‘z faoliyati uchun mas’uliyatini farqlash zarur. Kosmik shartnomaning VI moddasida davlatning milliy kosmik faoliyat uchun xalqaro javobgarligi nazarda tutilgan [4; VI modda]. Lekin bu qoida xususiy subyektning har qanday tijorat yoki ma’lumotlarga ishlov berish faoliyati uchun davlat avtomatik javobgar bo‘lishini anglatmaydi. Kosmik apparatni boshqarish va undan ma’lumot olish faoliyati bilan Yerda tasvirlarga ishlov berish yoki ularni qayta sotish faoliyati huquqiy tabiati va tartibga solish manbalari jihatidan farq qiladi.

Rahbar tamoyillarga ko‘ra, davlatlar o‘z hududida yoki yurisdiksiyasida biznes korxonalari tomonidan inson huquqlari buzilishidan himoya qilish uchun qonunchilik va nazorat mexanizmlarini yaratishi lozim [21; 1–3-tamoyillar]. Bu majburiyat xususiy subyekt sodir etgan har qanday huquqbuzarlik uchun davlatning avtomatik javobgarligini emas, balki uning faoliyatini tartibga solish va salbiy ta’sirning oldini olish choralarini ko‘rish burchini anglatadi [21; 1-tamoyil sharhi].

Tijorat operatorlarining inson huquqlarini hurmat qilish mas’uliyati tasvirni olishdan tarqatishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab olishi kerak. Operatorlar faoliyat maqsadini aniqlashi, tasvirlar orqali shaxslarni identifikatsiya qilish imkoniyatini baholashi, ma’lumotlarga kirishni cheklashi va ularni uchinchi shaxslarga berish bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishi lozim. Bu mas’uliyatni amalda ta’minlashda inson huquqlari bo‘yicha tegishli tekshiruv (human rights due diligence) muhim vosita hisoblanadi: u faoliyatning ehtimoliy ta’sirini oldindan aniqlash, baholash, salbiy oqibatlarning oldini olish va natijalarni kuzatib borishni talab etadi [21; 17-tamoyil]. Shu bilan birga, bu mas’uliyatni xalqaro yuridik javobgarlik bilan tenglashtirib bo‘lmaydi: yuridik javobgarlik tegishli yurisdiksiyaning milliy qonunchiligiga muvofiq belgilanadi [21; 12-tamoyil sharhi].

“Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunda kosmik faoliyat subyektlari, Milliy operator va Yerni masofadan zondlash ma’lumotlari bilan ishlashning huquqiy asoslari belgilangan [9]. Bunda kosmik faoliyat sohasidagi Milliy operator maqomi bilan shaxsga doir ma’lumotlar operatori maqomini farqlash lozim. Birinchisi kosmik faoliyat sohasidagi vakolat va vazifalarni, ikkinchisi shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish bilan bog‘liq majburiyatlarni anglatadi. Bitta yuridik shaxs har ikki maqomga ega bo‘lishi mumkin, ammo har biri bo‘yicha alohida qonun talablariga rioya etishi shart. Kosmik tasvirlar shaxsga doir ma’lumot mezonlariga javob bergan taqdirda, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonundagi ishlov berishning qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlar hajmining zaruriyligi va maxfiylik talablari, shuningdek, subyektning axborot olish va vakolatli organ yoki sudga murojaat qilish huquqlari [8] bunday tasvirlar bilan ishlovchi operatorlarga to‘liq tatbiq etiladi.

Ma’lumotlarning transchegaraviy uzatilishi alohida e’tibor talab qiladi. 2026-yil 26-martdagi O‘RQ-1125-son Qonun bilan yangi tahrirda bayon etilgan 27^1-moddaga ko‘ra, biometrik va genetik ma’lumotlar kabi ayrim toifalar O‘zbekiston hududida saqlanadi, boshqa ma’lumotlar esa qonunda belgilangan himoya shartlari bajarilganda chet davlatda saqlanishi va ularga ishlov berilishi mumkin [22; 27^1-modda]. Demak, kosmik tasvirlardan hosil qilingan shaxsga doir ma’lumotlarni xorijiy operatorlarga berish yoki chet eldagi axborot infratuzilmasida saqlashda shu talablarga rioya etilishi lozim. Umuman olganda, xususiy operatorlar faoliyatida shaxsiy hayot

daxlsizligini ta’minlash litsenziya talablarini bajarish bilan cheklanmasligi, ma’lumotlar bilan ishlashning har bir bosqichi inson huquqlariga ta’siri nuqtayi nazaridan baholanishi kerak.

4. O‘zbekiston qonunchiligida kosmik monitoring ma’lumotlaridan foydalanishda shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash mexanizmlari

O‘zbekistonda kosmik monitoring ma’lumotlaridan foydalanishda shaxsiy hayot daxlsizligi Konstitutsiya, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi va “Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlar orqali ta’minlanadi. Bu hujjatlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish umumiy kafolatlarni kosmik monitoringning texnologik xususiyatlariga moslashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Konstitutsiyaning 31-moddasidagi kafolatlar [7; 31-modda] kosmik monitoring natijasida shakllangan, muayyan shaxsga taalluqli axborotni himoya qilishning konstitutsiyaviy asosidir. Shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish ma’lumotlarning oshkor etilishini cheklash bilan tugamaydi: ularni qonuniy asossiz yig‘ish, ularga ishlov berish va boshqa maqsadlarda foydalanish ham huquqiy baho talab qiladi.

“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun ishlov berishda qanday vositalar, shu jumladan axborot texnologiyalari qo‘llanilishidan qat’i nazar yuzaga keladigan munosabatlarni qamrab oladi. Demak, kosmik monitoring orqali olingan axborot shaxsga doir ma’lumot mezonlariga javob bersa, bu Qonun talablari qo‘llanadi. Qonunda ishlov berishning qonuniyligi, ma’lumotlarning aniqligi, maxfiyligi va himoyalanganligi asosiy prinsiplar sifatida mustahkamlangan [8]. Uning 18–19-moddalarida ishlov berish asoslari, maqsadlarning qonuniyligi, ma’lumotlar hajmi va xususiyatining maqsadlarga muvofiqligi belgilangan [8; 18–19-moddalar]. Masalan, ekologik monitoring yoki hududiy rejalashtirish uchun olingan tasvirlardan keyinchalik shaxslarning kundalik faoliyati haqida axborot shakllantirishda foydalanish dastlabki maqsad doirasidan chiqadi va yangi maqsadning qonuniy asosini alohida baholashni talab qiladi.

Qonunning 27–28-moddalarida ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiyligini ta’minlash talablari nazarda tutilgan: mulkdor, operator va uchinchi shaxslar ma’lumotlarning yaxlitligi, saqlanishi va qonunga xilof ishlov berilishining oldini olish uchun huquqiy, tashkiliy va texnik choralar ko‘rishi shart [8; 27–28-moddalar]. Subyektning roziligisiz yoki boshqa qonuniy asossiz ma’lumotlarni oshkor etish va tarqatishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu qoidalar tasvirlarni uchinchi shaxslarga berish va ommaviy axborot resurslarida joylashtirishda ham hisobga olinishi kerak. Qonunning 22 va 30–31-moddalariga ko‘ra, shaxs o‘ziga tegishli ma’lumotlar mavjudligini, ularga ishlov berish maqsadi va asoslarini bilish, huquqlari buzilganda vakolatli davlat organiga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega [8; 22, 30–31-moddalar]. Bu kafolatlar kosmik monitoring orqali shaxsga doir ma’lumotlar shakllangan hollarda ham amal qiladi.

“Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasida ma’lumotlarni olishni rejalashtirish, olish, ularga ishlov berish, saqlash va tarqatish, 14-moddasida kosmik monitoringni amalga oshirish, 15-moddasida davlat kosmik monitoringi tartibi nazarda tutilgan [9; 13–15-moddalar]. Bu normalar kosmik monitoringning tashkiliy va funksional asoslarini belgilaydi, biroq yuqori aniqlikdagi tasvirlarda aks etgan turar joylar va xususiy hududlarga oid ma’lumotlarni himoya qilish mezonlarini batafsil ochib bermaydi. Davlat kosmik monitoringi muhim jamoat manfaatlariga xizmat qiladi, ammo bu olingan tasvirlardan cheklanmagan tarzda foydalanish yoki ularni istalgan subyektga berish uchun asos bo‘lmaydi: shaxsni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi axborotni saqlash, unga ishlov berish va taqdim etish tegishli huquqiy asosga ega bo‘lishi kerak.

Tahlil natijasida qonunchilikni yanada takomillashtirishni talab qiluvchi uchta masala aniqlandi. Birinchidan, kosmik monitoring ma’lumotlari bilan ishlash tartibi mavjud bo‘lsa-da, yuqori aniqlikdagi tasvirlar bilan bog‘liq shaxsiy hayot xavflarini oldindan baholash mezonlari maxsus belgilanmagan. Ikkinchidan, tasvirlarni takroran olish va turli ma’lumotlar bazalari bilan birlashtirish natijasida bilvosita identifikatsiya xavfini baholash mexanizmini rivojlantirish zarur. Uchinchidan, tasvirlarni uchinchi shaxslarga berish va tijorat maqsadlarida qayta ishlatishda maxfiylikni ta’minlashga oid qo‘shimcha tashkiliy va texnik talablarni belgilash maqsadga muvofiq.

Muhokama. Tahlil O‘zbekistonda shaxsiy hayot daxlsizligining konstitutsiyaviy va qonuniy kafolatlari mavjudligini, ularni kosmik monitoringning texnologik xususiyatlariga nisbatan aniqlashtirish esa navbatdagi vazifa ekanini ko‘rsatadi. Qonunchilikni takomillashtirish mavjud normalarni takrorlashga emas, balki ularni kosmik monitoring jarayonlariga moslashtirishga qaratilishi lozim.

Olingan natijalarni xorijiy doktrina bilan solishtirish ham foydali. GDPR doirasidagi tadqiqotlarda tasvirning shaxsga doir ma’lumot sifatidagi maqomi identifikatsiya imkoniyatiga qarab aniqlanadi va asosiy xavf tasvirni boshqa manbalar bilan birlashtirishda ko‘riladi [12; 13]. Bu yondashuv O‘zbekiston qonunidagi shaxsga doir ma’lumot ta’rifiga mos keladi, ya’ni milliy qonunchilikda ham tasvirni identifikatsiya imkoniyatiga qarab baholash uchun normativ asos bor. AQSH va Avstraliya tajribasiga oid tadqiqotda esa “oqilona maxfiylik kutish” mezoni va ochiq manbalardan olingan tasvirlarning ommaviy tarqatilishi xavfi markazga qo‘yiladi [16]. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, tasvirning ochiq manbadan olingani uni shaxsiy hayot himoyasidan chiqarib qo‘ymaydi, shuning uchun milliy qonunchilikda tarqatish bosqichiga alohida e’tibor berish lozim.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, tizimli kosmik monitoringdan oldin uning inson huquqlariga ehtimoliy ta’sirini baholash mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Baholash kuzatuv maqsadi va qonuniy asosini, hududiy va vaqt chegaralarini, tasvir

aniqligini, ishlov berish usullarini va ehtimoliy salbiy oqibatlarni qamrab olishi kerak. Ayniqsa, turar joylar va xususiy hududlarni muntazam kuzatish yoki tasvirlarni boshqa ma’lumotlar bilan birlashtirish rejalashtirilganda bunday baholash zarur. Bu mexanizm biznes subyektlarining salbiy ta’sirni aniqlash va kamaytirishga qaratilgan xalqaro yondashuviga ham mos keladi [21; 17-tamoyil].

Ikkinchidan, tasvirni olish va unga ishlov berishda zaruriyat va mutanosiblik mezonlarini kuchaytirish lozim. Monitoring maqsadining qonuniyligi har qanday hududni istalgan aniqlikda va cheklanmagan davriylikda tasvirga olish uchun yetarli asos bo‘lmaydi. Uchinchidan, egasizlantirish va identifikatsiya imkoniyatini cheklash mexanizmlarini rivojlantirish kerak. Bunda barcha tasvirlarga bir xil talab qo‘yish to‘g‘ri bo‘lmaydi: tasvir mazmuni va foydalanish maqsadiga qarab identifikatsiyaga imkon beruvchi qo‘shimcha ma’lumotlarni olib tashlash, ayrim qismlarni niqoblash yoki fazoviy aniqlikni pasaytirish usullari qo‘llanishi mumkin. Bu, ayniqsa, turar joylarga oid tasvirlarni ommaviy tarqatishda muhim.

To‘rtinchidan, ma’lumotlarni saqlash va uchinchi shaxslarga berish tartibini aniqlashtirish zarur. Taqdim etishda oluvchining foydalanish maqsadi, keyingi uzatish imkoniyati, maxfiylik va axborot xavfsizligi talablari belgilanishi, saqlash muddati yig‘ish maqsadi va qonuniy majburiyatlarga muvofiq bo‘lishi, maqsadga erishilgach ma’lumotlar qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari yo‘q qilinishi yoki egasizlantirilishi kerak. Beshinchidan, nazorat va samarali huquqiy himoya imkoniyatlarini kuchaytirish lozim. Tasvirni qaysi subyekt olgani, qanday maqsadda ishlov bergani va kimga taqdim etganini aniqlash uchun operatorlar ma’lumotlar bilan asosiy operatsiyalarni qayd etishi, mas’ul shaxslarni belgilashi va shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibini yo‘lga qo‘yishi maqsadga muvofiq.

Bu takliflarni amalga oshirishning huquqiy yo‘li sifatida “Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunni yangi 15¹-modda bilan to‘ldirish taklif etiladi. Moddaning quyidagi tahririni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

“15¹-modda. Kosmik monitoringni amalga oshirishda shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash

Kosmik monitoringni amalga oshirishda shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sir hamda shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi shart.

Kosmik monitoring ma’lumotlarini olish, ularga ishlov berish, saqlash va tarqatish qonuniy maqsadlarda, zarur hajmda va ushbu maqsadlarga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Shaxsni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ma’lumotlarga ishlov berishda shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilik talablari ta’minlanadi.

Shaxsiy hayot daxlsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tizimli kosmik monitoringni amalga oshirishdan oldin uning inson huquqlariga ehtimoliy ta'siri baholanadi.

Kosmik monitoring ma'lumotlari uchinchi shaxslarga taqdim etilganda ulardan foydalanish maqsadlari, maxfiylik va axborot xavfsizligi talablari belgilanadi.

Kosmik monitoring ma'lumotlarini saqlash, ularga ishlov berish va tarqatish tartibi qonunchilikda belgilanadi".

Taklif etilayotgan norma umumiy kafolatlarni takrorlamaydi: u tizimli monitoringdan oldin ta'sirni baholash, ma'lumotlardan foydalanish maqsadi va chegaralarini belgilash hamda uchinchi shaxslarga berishda maxfiylikni ta'minlashni kosmik faoliyatning maxsus talablariga aylantiradi. Normani amalga oshirish uchun kosmik monitoring ma'lumotlarini olish, ularga ishlov berish, saqlash va tarqatish tartibi to'g'risida nizom ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Unda ta'sirni oldindan baholash mezonlari, egasizlantirish va niqoblash usullari, saqlash muddatlari, uchinchi shaxslarga berish shartlari, transchegaraviy uzatish talablari va nazorat mexanizmlari belgilanishi mumkin. Kosmik texnologiyalarni qo'llovchi tashkilotlarni litsenziyalashda inson huquqlari va axborot xavfsizligiga oid talablar barcha subyektlarga bir xilda emas, balki shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov beruvchi yoki shaxsiy hayotga yuqori xavf tug'diruvchi faoliyat turlariga nisbatan qo'yilishi kerak; bu tadbirkorlik faoliyatiga ortiqcha ma'muriy yuk tushirmasdan zarur himoya darajasini ta'minlaydi.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Ish normativ va doktrinal tahlilga asoslangan, empirik ma'lumotlar, sud amaliyoti yoki operatorlarning ichki hujjatlari o'rganilmagan. "Kosmik faoliyat to'g'risida"gi Qonun nisbatan yangi bo'lgani uchun uni qo'llash amaliyoti hali shakllanmoqda. Kelgusida taklif etilgan mezonlarni amaliy holatlarda sinovdan o'tkazish, davlat organlari va operatorlar tajribasini o'rganish hamda Markaziy Osiyo davlatlari qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil o'tkazish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, sun'iy yo'ldosh tasvirining huquqiy maqomi uning texnik aniqligi bilan emas, balki unda aks etgan axborot, shaxsni identifikatsiya qilish imkoniyati va foydalanish maqsadi bilan belgilanadi. Barcha tasvirlar shaxsga doir ma'lumot hisoblanmaydi, biroq ular boshqa manbalar bilan birlashtirilib, shaxsni aniqlash imkoniyati yuzaga kelganda tegishli himoya mexanizmlari qo'llanishi lozim.

Ikkinchidan, shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish kosmik huquq normalari va inson huquqlari standartlarini uyg'un qo'llashni talab qiladi: davlatning nodavlat kosmik faoliyatni nazorat qilish majburiyati, biznes subyektlarining inson huquqlarini hurmat qilish mas'uliyati va shaxsning samarali huquqiy himoyasi o'zaro bog'liq. Xususiy operatorlarning mas'uliyati davlatning xalqaro-huquqiy javobgarligidan farq qiladi: operatorlar o'z faoliyatining salbiy

ta’sirini aniqlashi va kamaytirishi, davlat esa bu faoliyatni huquqiy mexanizmlar orqali tartibga solishi lozim.

Uchinchidan, xavflarning asosiy qismi tasvirga olishdan keyingi bosqichlarda – ishlov berish, saqlash va taqdim etishda yuzaga keladi. Shu sababli kafolatlar ma’lumotlarning butun hayot sikli bo‘yicha belgilanishi kerak; buning uchun maqolada xavflar va kafolatlar matritsasi hamda besh mezonli baholash modeli (qonuniylik, qonuniy maqsad, zaruriyat va mutanosiblik, ma’lumotlarni himoya qilish, hisobdorlik va huquqiy himoya) taklif etildi.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonda shaxsiy hayot daxlsizligining konstitutsiyaviy va qonuniy asoslari mavjud bo‘lib, ularni kosmik monitoringning texnologik xususiyatlariga moslashtirish – ta’sirni baholash, egasizlantirish va uchinchi shaxslarga berish mezonlarini aniqlashtirish – qonunchilikni takomillashtirishning navbatdagi yo‘nalishidir. Buning uchun “Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunga yangi 15¹-modda kiritish va uni amalga oshirish tartibini belgilovchi maxsus nizom qabul qilish taklif etildi.

Yuqori aniqlikdagi tasvirlardan foydalanishda inson huquqlarini ta’minlash kosmik texnologiyalarni cheklashni emas, balki ularning rivojlanishini shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va xalqaro majburiyatlarga muvofiq tartibga solishni nazarda tutadi. Davlat manfaatlari, tijorat operatorlarining qonuniy faoliyati va jismoniy shaxslar huquqlari o‘rtasidagi muvozanatni ma’lumotlarni olishdan tarqatishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oluvchi huquqiy mexanizmlar orqali ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi: BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III)-son rezolyutsiyasi. – URL: https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights

2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (International Covenant on Civil and Political Rights). – Nyu-York, 1966-yil 16-dekabr // United Nations Treaty Series. – Vol. 999. – P. 171.

3. UN Human Rights Committee. General Comment No. 16: Article 17 (Right to Privacy). The Right to Respect of Privacy, Family, Home and Correspondence, and Protection of Honour and Reputation. – 8 April 1988. – UN Doc. HRI/GEN/1/Rev.9 (Vol. I).

4. Treaty on Principles Governing the Activities of States in the Exploration and Use of Outer Space, including the Moon and Other Celestial Bodies. – London, Moscow, Washington, 27 January 1967 // United Nations Treaty Series. – Vol. 610. – P. 205.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Kosmik fazo, shu jumladan Oy va boshqa samoviy jismlarni tadqiq qilish hamda ulardan foydalanish bo‘yicha davlatlar faoliyati prinsiplari

to‘g‘risidagi shartnomaga (London, Moskva va Vashington, 1967-yil 27-yanvar) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi haqida”gi Qonuni. 2024-yil 10-oktabr, O‘RQ-975-son. – URL: https://lex.uz/docs/7148342

6. Principles Relating to Remote Sensing of the Earth from Outer Space: UN General Assembly Resolution 41/65 of 3 December 1986. – UN Doc. A/RES/41/65.

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – 2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan. – URL: https://lex.uz/docs/6445145

8. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O‘RQ-547-son. – URL: https://lex.uz/docs/4396419

9. O‘zbekiston Respublikasining “Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2025-yil 13-yanvar, O‘RQ-1017-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2024–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2024-yil 14-oktabr, PF-155-son. – URL: https://lex.uz/docs/7151133

11. von der Dunk F.G. Outer Space Law Principles and Privacy // Evidence from Earth Observation Satellites: Emerging Legal Issues / ed. by D. Leung, R. Purdy. – Leiden: Brill; Nijhoff, 2013. – P. 243–258.

12. Bu-Pasha S., Kuusniemi H. Data protection and space: What challenges will the General Data Protection Regulation face when dealing with space-based data? // Journal of Data Protection & Privacy. – 2020. – Vol. 4, № 1. – P. 52–58.

13. Santos C., Rapp L. Satellite Imagery, Very High-Resolution and Processing-Intensive Image Analysis: Potential Risks Under the GDPR // Air and Space Law. – 2019. – Vol. 44, № 3. – P. 275–296. – DOI: 10.54648/AILA2019018

14. Nissenbaum H. Privacy as Contextual Integrity // Washington Law Review. – 2004. – Vol. 79, № 1. – P. 119–158.

15. Solove D.J. A Taxonomy of Privacy // University of Pennsylvania Law Review. – 2006. – Vol. 154, № 3. – P. 477–564. – DOI: 10.2307/40041279

16. Pedram M., Chandler S., Georgiades E. When Open-Source Information Backfires: Satellite Imagery and Privacy Breaches // Vanderbilt Journal of Transnational Law. – 2025. – Vol. 58, № 1. – P. 119–156.

17. Rapach S., Riccardi A., Wheate R. Earth Observation technology’s alignment with OHCHR indicators for strengthening human rights breach investigations and adjudication // Science & Justice. – 2024. – Vol. 64, № 6. – P. 710–727. – DOI: 10.1016/j.scijus.2024.09.006

18. Youyod T., Li S. Legal Challenges When Applying Current Laws to the Use of Space Data // Beijing Law Review. – 2025. – Vol. 16, № 2. – P. 678–690. – DOI: 10.4236/blr.2025.162032

19. UN High Commissioner for Human Rights. The right to privacy in the digital age: Report to the Human Rights Council. – 13 September 2021. – UN Doc. A/HRC/48/31.

20. UN High Commissioner for Human Rights. The right to privacy in the digital age: Report to the Human Rights Council. – 4 August 2022. – UN Doc. A/HRC/51/17.

21. Guiding Principles on Business and Human Rights: Implementing the United Nations “Protect, Respect and Remedy” Framework. – New York; Geneva: OHCHR, 2011. – HR/PUB/11/04.

22. O‘zbekiston Respublikasining “«Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimcha kiritish haqida”gi Qonuni. 2026-yil 26-mart, O‘RQ-1125-son. – URL: https://lex.uz/docs/-8099215